

Yomg'ir yog'aloq

Shukur Sa'dulla



Shukur Sa'dulla
1912–1972

Shukur Sa'dulla – taniqli bolalar yozuvchisi, shoir, dramaturg va tarjimon. 1912-yil 15-yanvarda Jizzaxda tug'ilgan. Uning birinchi she'riy to'plami 1932-yilda nashr etilgan.



O'qing.



Yomg'ir yog'aloq*,
Yam-yashil o'tloq.
Endi ekinlar
Chiqarar quloq.

Tarnovdan oshib,
Tushadi shoshib.
So'ng jilg'alardan
Oqadi toshib.

Ariqlar to'lar,
Zo'r anhor bo'lar.
Suv serob ekan,
Ko'p paxta unar.

Yomg'irdan foyda
Maysaga, donga.
Yurt serob bo'lar
Oq bug'doy nonga.

Yomg'ir yog'aloq,
Tomchi yumaloq.
Yomg'ir tinganda
Chiqar kamalak.





yomg'ir yog'aloq – yomg'ir yog'averadi



1. Jala nima?
2. Shoir yomg'ir haqida nimalar deydi?
3. Yomg'irning maysa, don va hosilga qanday foydasi bor?
4. Nima uchun shoir yomg'irdan keyin **ekinlar chiqarar quloq** deydi?



She'rni avval g'amgin, keyin esa quvnoq ohangda o'qib ko'ring. Sizningcha, she'rga qaysi kayfiyat ko'proq mos keladi?



Yomg'irning qanday turlari bo'ladi?

Sharros yomg'ir tez, shiddat bilan yog'uvchi yomg'iridir. Bunday yomg'ir tepadan tikka va juda kuchli quyib yog'adi. U har doim uzoqdan shovqin-suron bilan boshlanadi.

Mayda yomg'ir esa pastlab uchayotgan bulutlardan ohista, maydalab yog'adi. Bunday yomg'ir yog'gan paytda havoga yengil tuproq hidi taraladi.

Yoz yomg'iri (kun chiqib turganda yog'adigan yomg'ir) yog'ganda, "Malika yig'layapti", deyishadi. Bunday yomg'irning quyoshda tovlanuvchi, yaltiroq tomchilari xuddi yirik ko'z yoshlariga o'xshaydi.



She'rni yod oling.

